ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 238 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CODEPЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Ганурова

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik mohiyati ... 97
Mavlyanova Umida Sadikjanovna

Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari 101
Choriyeva Durdona Anvarovna, Malikova Umida Nurliboy qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi

Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar milliy qadriyatlariga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 106
Turg'unov Baxromjon Raximjonovich

Tarbiyachi-pedagoglarda deontologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik yondashuvlari 112
Davlatova Dildora Nuriddinovna

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari 115
A. B. Mamatova

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati monitoringi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 123
Mongiyev Abdulxokim Ibragimovich

Transformational School Leadership and Teacher Performance: A Narrative Literature Review 127
Nilufar Buriyeva Anvar kizi, Axatov Aminjon Tohir ugli,
Sodiqova Marziyaxon Botirjon kizi, Lutfullayeva Moxistara Xayrullo kizi

Pedagogical Model for Improving the Methodological Competence of Future History Teachers Based on Digital Historical Sources 133
Otegenov Berdibay Menglibaevich

Tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari va ertakterapiya imkoniyatlari 136
Qosimova Muattarxon Shokirjon qizi

O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik mahorat, refleksiv va innovatsion yondashuvning integratsiyasi 140
Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna

Xorijiy tajribalar asosida maktab ta'lim mazmunini takomillashtirish 146
Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Teshayeva Toxira Inomjonovna

Pedagogik muhandislikning metodologik asoslari, kategoriyaviy apparati va yondosh ilmiy-pedagogik yo'nalishlar bilan o'zaro aloqadorligi 151
Nasrullayeva Fatima Azatovna

Рефлексивная подготовка будущих воспитателей к личностно ориентированному взаимодействию с дошкольниками 160
Бозорова Зухра Жураевна

Bo'lajak tarbiyachilarning tasviriy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni 165
Xazratkulova Gulyora Tojiboyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili ta'limini loyihalash kompetensiyasini metakognitiv yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi 169
Raupova Navbahor Bahriddinovna

Kursant va talabalarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish va ekstremal sharoitlarda harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari 174
Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich

Talabalarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyati 179
Sharipova Guzal Sodiqovna

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining matematik tasavvurlarini mental yondashuv asosida takomillashtirish: nazariy-metodik sharh 185
Parpiyeva Mohinur Baxtiyor qizi

STEAM yondashuvi asosida fizika laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi 189
Artikov Abdukaxor

"Korpus detektori" mashqlar tizimi: tuzilishi, bosqichlari va qo'llash metodikasi 196
Bahronov Nodirbek Aliyevich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongli o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda tabaqalashtirilgan yondashuv (EGRA-U diagnostikasi asosida) 199
Ne'matova Diyora Baxodir qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Ona tili darslarida hamkorlik texnologiyasidan foydalanishning mavjud holati va metodik muammolari 205
Usmonova Yulduz Faxriddin qizi

Grammatik tarjima metodida ona tilidan foydalanishning didaktik xususiyatlari 210
Erkinova Madina Komil qizi

Talabalarda ta'limiy kommunikativlikni rivojlantirishning pedagogik shart sharoitlari 214
Babayeva Maxfuza Abduvaitovna, Ismoilov Bobur Toxirovich

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi refleksiv kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish darajalari 218
Bomurodova Gulhayo Jumayevna

Masalalarni tenglama tuzish yordamida yechimini qurishga o'rgatish metodikasi 223
Ismoilov Bobur Toxirovich, Babayeva Maxfuza Abduvaitovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash mazmunida argumentatsion nutq: darsliklar, o'quv reja va oliy ta'lim adabiyotining kontent-tahlili 229
Mamatova Marg'uba Ummatqul qizi

Основы паллиативной помощи педагогическая поддержка детей, получающих паллиативную помощь 233
Жузбаев Нурлан Урал угли, Хакимова Гульшода Абдусаламовна

TALABALARDA TA'LIMIY KOMMUNIKATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART SHAROITLARI

Babayeva Maxfuza Abduvaitovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim nazariyasi" kafedrasi dosenti (PhD)
Termiz (O'zbekiston)
e-mail: maxfuza-babayeva@tues.uz

Ismoilov Bobur Toxirovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
"Maktabgacha va bosh'lang'ich ta'lim nazariyasi" kafedrasi dosenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: bobur_ismoilov@tues.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida samarali muloqotning o'rni, ta'limiy kommunikativlikning mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari hamda rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, darslarni talabalarning individual xususiyatlari, muloqotga tayyorgarligi va kommunikativ ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'limiy kommunikativlik, pedagogik muloqot, kommunikativ kompetensiya, talaba, interfaol metodlar, refleksiya, hamkorlikdagi ta'lim.

Abstract: The article analyzes the role of effective communication in the educational process, the essence of educational communicativeness, its structural components, and opportunities for its development. It also examines the organization of classes taking into account students' individual characteristics, readiness for communication, and communicative needs.

Key words: educational communicativeness, pedagogical communication, communicative competence, student, interactive methods, reflection, collaborative learning.

Аннотация: В статье анализируются роль эффективного общения в образовательном процессе, сущность образовательной коммуникативности, её структурные компоненты и возможности развития. Кроме того, рассматриваются вопросы организации учебных занятий с учётом индивидуальных особенностей студентов, их готовности к общению и коммуникативных потребностей.

Ключевые слова: образовательная коммуникативность, педагогическое общение, коммуникативная компетентность, студент, интерактивные методы, рефлексия, сотрудничество.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlash, ularda mustaqil fikrlash, hamkorlikda faoliyat olib borish, o'z nuqtayi nazarini asoslash hamda fikr almashish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ta'lim jarayonining samaradorligi nafaqat o'quv materialining mazmuni va o'qitish metodlariga, balki o'qituvchi va talaba, shuningdek, talabalarning o'zaro muloqoti qay darajada tashkil etilganiga ham bog'liq.

Ta'lim jarayonida muloqot axborot uzatish vositasi bo'lish bilan birga, bilimlarni anglash, o'zlashtirilgan ma'lumotlarni tahlil qilish, fikrlarni taqqoslash, muammoli vaziyatlarni hal etish va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil qilish imkonini beradi. Samarali pedagogik muloqot talabaning ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi, o'z fikrini erkin ifodalashiga ko'maklashadi hamda o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro tushunish muhitini shakllantiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

G.N. Kurbanovaning pedagogik muloqotning talabalarda kasbiy tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyatiga bag‘ishlangan tadqiqotida muloqotning axborot almashish, munosabatlarni rivojlantirish va talabalarning kasbiy shakllanishiga ta’sir etuvchi jihatlari yoritilgan. Muallif tomonidan muloqotdagi qiyinchiliklarni aniqlash, o‘zaro munosabatlarni tahlil qilish, emotsional jihatdan qulay muhit yaratish va muloqot ko‘nikmalarini amaliy mashqlar orqali mustahkamlashga e’tibor qaratilgan[1].

Mazkur masalalar talabalarda ta’limiy kommunikativlikni shakllantirishni alohida pedagogik-metodik muammo sifatida o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Chunki ta’limiy kommunikativlik faqat ravon gapirish yoki axborotni yetkazish bilan cheklanmaydi. U ta’limiy vaziyatlarda fikrni aniq ifodalash, suhbatdoshni tinglash, savol berish, fikrlarni asoslash, muloqot qoidalariga rioya qilish va umumiy ta’limiy maqsadga erishish uchun hamkorlik qilishni ham qamrab oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Passov kommunikativlikni ta’lim jarayonida namoyon bo‘ladigan xususiyatlar orqali izohlaydi. Uning yondashuvida kommunikativlikning muhim belgilari - motivatsiya, maqsadga yo‘naltirilganlik, nutqiy fikrlash faolligi, muloqot ishtirokchilarining o‘zaro ta’siri, vaziyatga moslik va muloqot mazmunining yangiligi bo‘lsa[4], S. V. Chernyshov kommunikativlikni keng ma’noda shaxsning ijtimoiy, kasbiy va shaxslararo munosabatlarda axborotni uzatish, qabul qilish hamda almashish jarayonida boshqalar bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilishga tayyorligi va qobiliyati bilan izohlaydi[5].

Ariyan - kommunikativ jihatdan muvaffaqiyatli faoliyat yurita olish tushunchasini shaxsning turli kommunikatsiya vositalari orqali o‘z muloqot maqsadini amalga oshirishi va o‘zaro tushunishga erishishini ta’minlovchi sifati sifatida izohlaydi.

Kommunikativlik - bu insonning o‘z fikrini aniq va tushunarli ifoda eta olish, boshqalar bilan samarali muloqotda bo‘lish, fikrlarni, g‘oyalarni boshqalar bilan baham ko‘rish va turli vaziyatlarda do‘stona va professional tarzda muloqot qilish qobiliyatidir.

Sodda qilib aytganda, kommunikativlik - boshqalar bilan samarali muloqot qila olish va muloqot orqali o‘zaro tushunishga erishish qobiliyati hisoblanib, uning asosiy xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- fikrni ifodalash - o‘z qarashlarini aniq, izchil va tushunarli bayon etish; tinglash va tushunish - suhbatdoshning fikrini anglash va unga mos munosabat bildirish;
- muloqotga kirishish - savol berish, javob qaytarish va fikr almashish;
- hamkorlik qilish - umumiy maqsad yo‘lida boshqalar bilan birgalikda ishlash;
- vaziyatga moslashish - muloqot usulini maqsad va suhbatdosh xususiyatlariga mos tanlash.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, Dell Hymes kommunikativ kompetensiyani til qoidalarini bilish bilangina cheklamay, tilni muayyan ijtimoiy vaziyatga mos ravishda qo‘llay olish bilan bog‘laydi. Ya’ni inson grammatik jihatdan to‘g‘ri gapirishdan tashqari, kim bilan, qayerda va qanday vaziyatda muloqot qilayotganini ham hisobga olishi kerakligini ta’kidlaydi[2].

Olimlar Michael Canale va Merrill Swainlar tomonidan kommunikativ kompetensiyaning nazariy modeli ishlab chiqilgan. Unda grammatik, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalar ajratilgan bo‘lib, modelda kommunikativ faoliyatda til vositalaridan to‘g‘ri foydalanish, ijtimoiy vaziyatga moslashish va muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish tushuntirilgan[3].

Olimlarimizdan R. Usarov talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda ta’lim jarayonidagi hamkorlik, muloqot texnologiyalari va talabaning kommunikativ faolligiga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi [6].

Ta’limiy kommunikativlik tushunchasining mazmun-mohiyatiga keladigan bo‘lsak kommunikativlik insonning boshqa shaxslar bilan aloqa o‘rnatishi, fikr almashishi, o‘z qarashlarini ifodalashi va o‘zaro tushunishga erishishi bilan bog‘liq xususiyatlarni ifodalaydi. Ta’lim jarayonida esa kommunikativlik muayyan pedagogik maqsadga yo‘naltirilgan muloqot, bilim almashish va hamkorlikdagi faoliyat bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘lsa, ta’limiy kommunikativlik - talabaning ta’lim jarayonida o‘qituvchi va tengdoshlari bilan maqsadga muvofiq muloqotga kirishishi, o‘quv axborotini anglash va yetkazishi, savol-javobda faol qatnashishi, o‘z fikrini dalillar bilan asoslab berishi, boshqalarning fikrini tinglashi hamda umumiy ta’limiy vazifalarni hamkorlikda hal etishga tayyorligini ifodalovchi integral shaxsiy-faoliyat xususiyatidir.

Ushbu ta’rifda ta’limiy kommunikativlikning ikki jihati namoyon bo‘ladi.

Birinchisi - talabaning muloqotga oid bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi.

Ikkinchisi - bu bilim va ko‘nikmalarni muayyan ta’limiy vaziyatda maqsadga muvofiq qo‘llay olishi.

Demak, ta'limiy kommunikativlikni shakllantirish faqat nazariy ma'lumot berish bilan cheklanmasdan, talabalarga muloqotning turli shakllarida qatnashish va o'z kommunikativ faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini yaratishni talab etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Talabalarda ta'limiy kommunikativlikni shakllantirish jarayonini maqsadli tashkil etish uchun uning tarkibiy qismlarini aniqlashtirish muhimdir. Nazariy-metodik jihatdan quyidagi to'rtta o'zaro bog'liq komponentni ajratish mumkin: kognitiv, affektiv, interaktiv va pragmatik.

1. **Kognitiv komponent.** Ushbu komponent ta'limiy muloqotning maqsadi, vazifalari, qoidalari va usullari haqidagi bilimlarni qamrab oladi. Talaba fikrni mantiqiy va izchil bayon etish, savolni to'g'ri shakllantirish, dalil va misollardan foydalanish, axborotni tahlil qilish hamda suhbat mazmunini tushunish haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim.
2. **Affektiv komponent.** Bu komponent talabaning muloqotga bo'lgan munosabati, kommunikativ faolligi, o'ziga ishonchi, suhbatdoshga hurmat bilan qarashi va boshqalarning hissiy holatini inobatga olishi bilan tavsiflanadi. Ta'limiy muhitda xatodan qo'rqmaslik, fikr bildirishga intilish, turli qarashlarga bag'rikeng munosabatda bo'lish mazkur komponentning muhim ko'rinishlaridir.
3. **Interaktiv komponent.** Interaktiv komponent muloqot jarayonida o'zaro ta'sir va hamkorlikni tashkil qilish bilan bog'liq. U suhbatdoshni tinglash, fikrga munosabat bildirish, savol berish, munozarada qatnashish, vazifalarni taqsimlash va guruhdagi umumiy natijaga erishish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.
4. **Pragmatik komponent.** Pragmatik komponent talabaning muloqot vositalari va usullarini muayyan ta'limiy vaziyatga mos ravishda qo'llay olishida namoyon bo'ladi. Masalan, ilmiy munozarada dalillarga tayanish, taqdimotda fikrlarni izchil bayon etish, guruhli topshiriqda kelishuvga erishish yoki o'zlashtirilgan bilimni boshqalarga tushuntirish shular jumlasidandir.

Ushbu komponentlar bir-birini to'ldiradi. Kognitiv komponent kommunikativ faoliyat uchun zarur bilimlarni shakllantirsa, affektiv komponent muloqotga kirishish istagi va munosabatni qo'llab-quvvatlaydi. Interaktiv komponent hamkorlikdagi harakatlarni ta'minlaydi, pragmatik komponent esa olingan bilim va ko'nikmalarni amaliy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi.

Shu sababli ta'limiy kommunikativlikni rivojlantirishda faqat nutqning ravonligi yoki talabaning mashg'ulotda ko'p gapirishi bilan cheklanib qolmaslik kerak. Talabaning tinglash sifati, fikrni asoslash darajasi, muloqot odobi, hamkorlikdagi faolligi va vaziyatga mos kommunikativ qaror qabul qilishi ham hisobga olinishi lozim.

Talabalarda ta'limiy kommunikativlikni shakllantirish muayyan pedagogik shart-sharoitlarga tayanishi kerak. Ta'lim jarayonida o'zaro hurmat, ochiq fikr almashish muhiti; o'qituvchining muloqot jarayonida namuna ko'rsatishi, turli nuqtayi nazarlarni xolis muhokama qilish; kommunikativ faoliyatning muntazam va maqsadli tashkil etilishi; talabalarning individual xususiyatlari va kommunikativ tayyorgarlik darajasini hisobga olinishi zarur.

Ta'limiy kommunikativlikni shakllantirishga doir nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, muloqot ta'lim jarayonining yordamchi vositasi emas, balki bilimlarni o'zlashtirish, fikrlash va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq muhim omildir. Biroq muloqot imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun mashg'ulotlarda talabalarning faol ishtirokini ta'minlash va ularning individual ehtiyojlarini hisobga olish talab etiladi.

Ta'limiy kommunikativlikning kognitiv, affektiv, interaktiv va pragmatik komponentlarga ajratilishi mazkur jarayonni tizimli tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu komponentlar bir-biridan mustaqil emas. Masalan, talaba mavzu bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lsa-da, o'z fikrini bildirishga ishonchi yetishmasligi mumkin. Aksincha, muloqotda faol ishtirok etuvchi talaba o'z fikrini dalillar bilan asoslash yoki suhbatdoshining fikrini chuqur tahlil qilishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Shuning uchun metodik yordam talabaning aynan qaysi jihatda qo'llab-quvvatlashga ehtiyoji borligiga qarab belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarda ta'limiy kommunikativlikni shakllantirish oliy ta'lim jarayonining mazmuni, metodlari va o'zaro munosabatlar tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lgan pedagogik vazifadir. Ta'limiy kommunikativlikni maqsadga muvofiq muloqotga kirishish, fikrni asoslash, axborot almashish, suhbatdoshni tinglash va ta'limiy vazifalarni hamkorlikda bajarishga tayyorlikni ifodalovchi integral xususiyat sifatida talqin qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kurbanova G.N. Значение педагогического общения в развитии профессионального мышления студентов // Central Asian Journal of Education and Innovation. - 2023. - Vol. 2, Issue 2. - P. 49-55. - DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.7608606.
2. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics: Selected Readings / Ed. J.B. Pride, J. Holmes. - Harmondsworth: Penguin, 1972. - P. 269-293.
3. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. - 1980. - Vol. 1, No. 1. - P. 1-47. - DOI: https://doi.org/10.1093/applin/I.1.1.
4. Кузовлева Н. Е., Пассов Е. И. Основы коммуникативной теории и технологии иноязычного образования. - М.: Русский язык, 2010. - 568 с.
5. Чернышов С. В. Эмотивно-концептная модель обучения иностранным языкам в лингвистическом вузе (английский язык): диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук. - Нижний Новгород, 2016. - 450 с.
6. O'sarov. R., L. Ivanovna. "Formation of communicative competence in students in the process of teaching Russian in pedagogical universities of Uzbekistan" The Lingua Spectrum 2025.The Lingua Spectrum, 2025

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.